

“BOBURNOMA”DAGI OYKONIMLAR TAVSIFI

Shabonova Guljamol Abdullo qizi

Buxoro davlat universiteti

o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası magistranti

gulishabonova@gmail.com

Annotatsiya: nomlar, joy nomlari, xususan, oykonimlar xalq hayotining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy jihatlarini o‘zida aks ettiradi. Shu sababli ularda xalq tarixi, turmush tarzi, madaniy-ma’rifiy qarashlari, tabiat va jamiyat bilan o‘zaro mushtaraklik o‘z ifodasini topgan. Biz ushbu axborotda “Boburnoma” asaridagi oykonimlar tahlilini bayon etamiz.

Kalit so‘zlar. toponim, oykonim, oykonimik indikator, topoobyekt, onomastik leksika, urug‘, qavm.

Аннотация: имена, топонимы, в частности, ойконимы отражают социально-экономические, культурно-духовные стороны жизни людей. Поэтому в них выражается история народа, образ жизни, культурно-просветительские взгляды, взаимодействие с природой и обществом. В данной информации мы представляем анализ персонажей произведения «Бобурнома».

Ключевые слова: топоним, ойконим, ойконимический индикатор, топообъект, ономастическая лексика, род, племя.

Annotation: names, toponyms, in particular, oykonyms reflect the socio-economic, cultural and spiritual aspects of people’s lives. Therefore, they express the history of the people, way of life, cultural and educational views, interaction with nature and society. In this information, we present an analysis of the characters in the work “Boburnoma”.

Key words: toponym, oykonym, oykonymic indicator, topoobject, onomastic vocabulary, tribe.

Oykonimlarning nomlanishi jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti, turmush sharoiti, xo‘jalik faoliyati bilan uzviy bog‘liq. Kishilar jamoasi turmushidagi o‘zgarishlar oykonimlarda yaqqol aks etib turadi. Shu sababdan ham aholi turar joylarining nomi ma’lum bir tarixiy davrda tez-tez almashinib, yangilanib o‘zgarib turgan. Ayni vaqtda Davlat tili bo‘lgan o‘zbek tiliga, uning tarixiga milliy,

ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy, etnolingvistik, etnografik jihatdan qaralganda oykonimlar qadimda yurtimizda yashagan elat, urug'-qabila nomlarining turar-joy obyektlariga nom sifatida atash bilan bog'liq an'analari, turmush tarzi, madaniy merosi, milliy qadriyatlari va ma'naviy boyliklari haqida ma'lumot beruvchi lisoniy, tarixiy hamda geografik manbalardan hisoblanadi. Ular shahar, shaharcha, qishloq, tuman, qishloq kengashi, guzar, mahalla, ovul, ovul kengashi kabi aholi punktlarining nomlari hisoblanadi.

Oykonimlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida shuni qayd etish lozimki, joy tarixiga oid ba'zi ma'lumotlar oykonimlarda yaxshi saqlanib qolgan. Aholining o'tmishdagi etnik tarkibi – qaysi urug', qabila, qavm, toifaga mansubligi, iqtisodiy turmush sharoiti – qanday kasb-hunar, faoliyat bilan shug'ullanganligi, shuningdek, hududning ma'lum kishiga qarashlilikini ifodalovchi oykonimlar fikrimizni isbotlaydi. Ular g'or va to'dalarda yashagan odamlar bilan birga bugungi ovul, mahalla, qishloq, guzar, shahar va shaharcha darajasidagi taraqqiyot va rivojlanish yo'lini bosib o'tgan. Shu bois ham oykonimlar qadimdan shakllangan milliy merosimizning bir bo'lagidir.

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida quyidagi oykonimik obyektlar va oykonimik indikatorlar qo'llanganligiga guvoh bo'ldik: *mahalla, guzar, ko'cha, qal'a, qo'rg'on, qasaba, o'lang, qishloq, tuman, kent, shahar* kabilar.

Har qanday geografik nom, jumladan, toponim va oykonimlar yer yuzasidagi biror topoobyektning tildagi ifodasi. U topoobyektlarga kishilar tomonidan berilganligi uchun ham nom deb ataladi. Jamiyat a'zolari tomonidan ma'lum darajada o'zlashtirilgan hududlar, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan hududlar o'ziga xos nomlar bilan atalgan [I.Xolmurotov, 2019. –B.64].

Oykonimlar tildagi so'zlar tarkibining onomastik leksika sathiga oid qismi. Shu bois ular odatdagi so'zlardan farq qilib, leksik-semantik va grammatik jihatdan tasniflash o'rinlidir. Bunday tasnif joy nomlarining individual xususiyatlarini ham yaqqol namoyon qiladi. Oykonimlarni ham bir butun tizim sifatida leksik-semantik jihatdan ikki guruhga bo'lish mumkin.

T.Enazarov onomastikadagi, xususan, toponimiyadagi leksik-semantik guruhlarni quyidagicha izohlagan:

1. Joy nomlarining qanday va qaysi tipdagi toponimik obyektlarning nomlari ekanligiga ko'ra turlari: gidronim, oronim, oykonim, agronim, paraggonim, dromonim, yer osti joy nomlari kabi.

2. Joy nomlarining kelib chiqishi va nomlanish xususiyatlariga ko'ra turlari: etnotoponimlar, antrotoponimlar, fitootoponimlar, sotsotoponimlar, ko'chma joy

nomlari, geotoponimlar, professionalizmlar asosida yuzaga kelgan joy nomlari, muqaddaslashtirilgan joy nomlari, zootoponimlar kiradi [T.Enazarov, 1999. –B.26].

Oykonimlarning bir qancha xususiyatlarini jamlagan tasniflari bo'lgan [V.Toporov; S.Karayev; N.Oxunov]. Ularda obyektning mavqeyi yuqori o'ringa chiqarilib, nomlarning kelib-chiqishi va nomlanish xususiyatlari e'tibordan chetda qolgan. Ularning leksik-semantik xususiyatlari va nomlanish xususiyatlarini belgilash o'z o'rnini yo'qotadi. Shu bilan birga ularning so'zlilik va nomlanishi leksik-semantik tasnifda o'z ifodasini topgan. Oykonimlar nomlanishining turli ko'rinishlari, shakl va mazmun mohiyatga ega ekanligi onomastik tadqiqotlarda u yoki bu shakllarda keltirib o'tilgan. Bu xususiyatlar uzoq tarixiy davrlar mobaynida sayqallanib kelayotgan jarayonlar jamlanmasi bo'lib, turli omillarga tayanadi. Har qanday hudud oykonimlaridagi onomastik so'zlar turli toponomik ma'nolarga ega. Ularning shakllanishi uchun asos bo'lgan so'zlar o'zgacha ifodalarni ham aks ettiradi. Topoobyektlardagi nomlardan biri, etnonim, biri antrotoponim, ba'zilar esa o'simlik yoki hayvon nomlari bilan atalishi mumkin. Bunday nomlardagi qaysidir xususiyat yoki voqea-hodisalar birlamchi o'rinni egallaydi. Shuningdek, oykonimlarning nomlanishida ham bu xususiyatlar ko'zga tashlanadi. Bizningcha, oykonimlarni leksik-semantik jihatdan o'rganganda ularning nomlanishiga xos bo'lgan toponimlashuv asosiy masala hisoblanadi. Bu nomlanish jarayonlari turli nomlanish omillariga tayangan holda, ularning ko'p qismi toponimlarni shakllantiruvchi muhit va vaziyatning turli davrlarda turlicha mazmun va mohiyat kasb etishi bilan izohlanadi. Shu jihatdan biz o'rganayotgan manbadagi oykonimlarni guruhlarga bo'lib tasnif etdikki, bu bilan ularning shakllanishi, etimologiyasi, nomlanishi va qanday obyektning nomi ekanligi masalasi oydinlashadi.

“Boburnoma”dagi oykonimlarni qanday obyekt va qaysi tipdagi toponimik obyektning nomi ekanligiga ko'ra tasnifni quyidagi ko'rinishda amalga oshirish mumkin: 1) mahalla nomi; 2) guzar nomi; 3) ko'cha nomi; 4) qishloq nomi; 5) qasaba nomi; 6) qo'rg'on nomi; 7) qal'a nomi; 8) kent nomi; 9) tuman nomi; 10) rabot nomi; 11) shahar nomi; 12) viloyat nomi;

Yuqorida ko'rsatilgan nomlar “Boburnoma” asaridagi oykonimlarning leksik-semantik nuqtayi nazaridan ularning qanday topoobyektning nomlari ekanligiga ko'ra tahlil qilinadi:

1. Mahalla nomlari – Motrid [44-b], Gulkina [116-b], Ravza mahollot [126-b].

2. Guzar nomlari – Kilif [33-b], Uyoch [110-b], Uboj [110-b], Karki [111-b], Nilob [119-b], Dinkut [119-b], Chupora [119-b], Ohor [273-b], Haldiy [339-b], Cho'pora [343b].

3. Qishloq nomlari – Saripul [23].

4. Qasaba nomlari – Andijon [5-b], O‘sh [6-b], Kesh [6-b], Marg‘inon [6-b], Kandibodom [7-b], Bila [136-b].

5. Qo‘rg‘on nomlari – Urgut [40-b], Raboti Xoja [43-b], Xoja Diydor [42-b], Pop [52-b], Nasux [53-b], Bust [54-b], Mozu (Modu) [62-b], Peshxoron (Bishxoron) [68-b], Sangzor [70-b], Sheroz [73-b], Xoja Diydor [73-b], Kashdud [74-b], Asfidak [74-b], Vasmand [75-b], Siyolkut [56-b], Ajar [110-b], Shaburg‘on [111-b], Andxud [111-b], Sunan [117-b], Odinapur [120-b], Gardiz [127-b], Andaroba [210-b], Jina [220-b], Parshovar [222-b], Ginkuta [239-b], Malut [237-b], Milvat [237-b], Bajur [247-b], Kandor [274-b], Jilisir (Biyona) [279-b], Tahangar [279-b], Bujona [304-b], Dulpur [304-b], Guvalyor [304-b], Robiriy [304-b], Atova, Qanuj [270-b], Chandiriy [306-b], Shamsobod [306-b], Chunor [334-b];

6. Qal‘alar – Qal‘a Zafar [13-b], Qal‘ai Dabus [23-b], Zahhok qal‘a [166-b], Rantapur [315-b], Madhokur [317-b];

7. O‘lang nomlari – Garzavon [40-b], Yakchirog‘ [42-b], Qo‘lba [42-b], Konigil [46-b], Chiltu [73-b], Nishin [54-b], Cholok [115-b], Oqsaroy [114-b], Siyohsang [117-b], G‘arbi Devrin [118-b], Qo‘sh Nodir [118-b], Kamariy [118-b], Qorabog‘ [138-b], Qushxona [191-b], So‘ng qo‘rg‘on [196-b];

8. Kent nomlari – Tarozkent [5-b], Rushdon [7-b], Yettikent [8-b], Xavos [11-b], O‘jin [45-b], Dahor [45-b], Siyolkut [56-b], Tangob [57-b], Sapon [58-b], Obi Xon [63-b], Xo‘bon [65-b], Saqo [65-b], Archakent [66-b], Navkand [67-b], Mahan [70-b], O‘nju To‘ba [63-b], Lotkand [62-b], Xudak [85-b], Xaliliya [86-b], Daxkat [86-b], Obburdan [89-b], Yag‘o (Yag‘mon) [93-b], Raboti Ro‘zaq [96-b], Karnon [108-b], Farqat [87-b], Som-Siyrak [88-b], Lamg‘on [114-b], Purshovar [116-b], Hashang‘ar [116-b], Karnud [116-b], G‘ud [116-b], Porandiy [119-], Bangash [119-b], Chag‘onsaroy [122-b], Mitakacha [124-b], Parvon [124-b], Durnoma [124-b], Istalif [124-b], Istarg‘ich [124-b], Charx [125-b], Chutoli [137-b], Bektut [141-b], Qalot [142-b], Panjko‘ra [200-b], Mondish [200-b], Shirkut [205-b], Parola [208-b], Kark [213-b], Koxon [213-b], Suvson [229-b], Kingdar [230-b], Jilisir [275-b], Sekriy [304-b], Sirvor [305-b], Obopur [328-b], Fathpur [328-b], Kundba [342-b], Kilira [344-b].

9. Navohis – Kanboy [64-b], Armiyon [65-b], No‘shob [65-b], Peshxoron [68-b], Kordzan [73-b], Navandok [73-b], Fon [73-b], Ushturgardon [83-b], Dushi [112-b], Egriyor [114-b], Dahona [140-b], Ishkamish [140-b], Oy tug‘di [145-b], Andxud [148-b], Shaburg‘on [148-b], Xushob [148-b], Mo‘lton [148-b], Muqur [196-b].

10. Ko‘cha nomlari – Namozgoh [17-b].

11. Rabot nomlari– Raboti Sarhang [63-b], Qaro Rabot [155-b], Raboti Dudar [195-b], Surx rabot [195-b], Raboti Zavrak [212-b].

12. Shaharlar – Olmoliq [5-b], Olmotu [5-b], Yangi kim [5-b], Fanokat [5-b], Hiri [6-b], Buxoro [7-b], Qunduz [11-b], Marv [11-b], Tabriz [12-b], Sheroz [12-b], Tirmiz [21-b], Xo‘qon [25-b], Qarshi [36-b], Shahrisabz [37-b], Shahrisafo [109-b], Ushtur [113-b], Xorazm [146-b], Urganch [151-b], Sultonpur [222-b], Dilazok [222-b], Parsrur [234-b], Kalonur [234-b], Balxlulpur [235-b], Diboldpur [240-b], Arupar [240-b], Anbola [241-b], Shohobod [241-b], Ponipat [242-b], Tug‘ulqobod [246-b], Shamsobod [246-b], Dehli [248-b], Junpur [248-b], Gujarot [248-b], Dushanbe [319-b], Munir [338-b], Iskandarpur [339-b].

13. Viloyatlar – Farg‘ona [5-b], Badaxshon [5-b], Koshg‘ar [5-b], Xo‘jand [5-b], Shohruxiya [5-b], Isfara [7-b], Kobul [7-b], Toshkand (Shosh, Choch) [7-b], Sayrom [11-b], O‘ratepa [11-b], Lamg‘on [13-b], Qandahor [13-b], Jizzax [Dizak] [15-b], Xo‘tan [19-b], Kirmon [29-b], Chag‘oniyon [53-b], Balx [53-b], Namangan [67-b], Hisor [109-b], G‘azni (Zobul) [116-b], Qunduz [116-b], Andarob [116-b], Farmul [116-b], Nag‘ar [116-b], Bannu [116-b], Qandahor [117-b], Dukki [137-b], Qanuj [151-b], G‘o‘r [155-b], Nakdariy [155-b], O‘ba [155-b], Charxcharon [155-b], Qalot [195-b], Tarnuk [195-b], Behra [205-b], Xushob [205-b], Chonob (Jonob) [205-b], Chanut [205-b], Lohur [206-b], Hazora [212-b], Hotiy [212-b], G‘ayosvul [212-b], Kitib [212-b], Bigrom [212-b], Savod [216-b], Bangola [249-b], Kashmir [250-b], Chandiriy [308-b], Biheston [308-b], Sorangpur [308-b], Bahor [336-b], Jo‘npur [343-b], Shohruxiya [5-b], Isfara [7-b], Kobul [7-b], Toshkand (Shosh, Choch) [7-b], Sayrom [11-b], O‘ratepa [11-b], Lamg‘on [13-b], Qandahor [13-b], Jizzax [Dizak] [15-b], Xo‘tan [19-b], Kirmon [29-b], Chag‘oniyon [53-b], Balx [53-b], Namangan [67-b], Hisor [109-b], G‘azni (Zobul) [116-b], Qunduz [116-b], Andarob [116-b], Farmul [116-b], Nag‘ar [116-b], Bannu [116-b], Qandahor [117-b], Dukki [137-b], Qanuj [151-b], G‘o‘r [155-b], Nakdariy [155-b], O‘ba [155-b], Charxcharon [155-b], Qalot [195-b], Tarnuk [195-b], Behra [205-b], Xushob [205-b], Chonob (Jonob) [205-b], Chanut [205-b], Lohur [206-b], Hazora [212-b], Hotiy [212-b], G‘ayosvul [212-b], Kitib [212-b], Bigrom [212-b], Savod [216-b], Bangola [249-b], Kashmir [250-b], Chandiriy [308-b], Biheston [308-b], Sorangpur [308-b], Bahor [336-b], Jo‘npur [343-b].

Yuqoridagilardan ma‘lum bo‘ladiki, o‘ndan ortiq mavzu guruhiga mansub yuzlab nom “Boburnoma” asarida qayd etilgan. Bu toponimlar hozirgi O‘rta Osiyo, Afg‘oniston hamda Hindiston hududiga tegishli.

Asarda ayrim nomlar qanday obyektga nomlaganligi aniq ko‘rsatilmagan. Bular jumlasiga O‘zgand [17-b], Astarobod [27], Qorategin [34-b], Toliqqon [35-b], Chakman [27-b], Marog‘a [44-b], Chaqar [44-b], Tarxon [49-b], Bomiyon [54-b], Pashog‘ar [56-b], Ashporiyon [58-b], Sang [103-b], G‘avo [106-b], Xoja Imod [109-

b], Qabodyon [109-b], Kohmard [110-b], Sherak [114-b], Sabzavor [148-b], Bistom [149-b], Domg'on [149-b], Mashhat [167-b], Qaysor [167-b], Chechaktu [167-b], Xoja Seyoron [214-b], Gandamak [224-b], Jingdalik [224-b], Sahrind [251-b], Chanduvor [252-b], Xarid, Xayrobod [283-b] kabilarni kiritish mumkin.

Oykonimlarning nomlanishi jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti, turmush sharoiti, xo'jalik faoliyati bilan uzviy bog'liq. Shu sababdan ham aholi turar joylarining nomi ma'lum bir tarixiy davrda tez-tez almashinib, yangilanib o'zgarib turgan.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, "Boburnoma" asarida nomlari zikr etilgan toponimlar uzul-kesil ilmiy tahlil etilishi uchun to'planishi, ular leksik-semantik hamda etimologik tahlil qilinishi kerak. Bu ajdodlarimiz hayot kechirib kelgan hududlarning tarixi, madaniyati, qolaversa, o'tmish kishilarining aql-zakovati natijalarini o'rganishga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи П.Шамсиев. –Т.: Юлдузча, 1989. – 367 б.
2. Kilichev B.E. Onomastika. O'quv qo'llanma. –Buxoro, Durdona, 2023. – 180 b.
3. Kilichev B., Shabonova G.A. "Boburnoma" asaridagi ayrim toponimlarning etimologiyasi haqida/"Talqin va tadqiqotlar" ilmiy-uslubiy jurnal.1-tom. №18 (2023).
4. Киличев Б.Э. Топонимлар таркибидаги сонлар ҳақида // "Илм sarchashmalari" Urgench, 2021, 3-son. –В.148-151.
5. Kilichev B.E., Timur Khojaoglu, Nodira Adizova Classification of Oykons (On the Example of Bukhara Region)/ International Journal of Culture and Modernity ISSN 2697-2131, 2022, Volume 16.
6. Kilichev B.E., Safarova M.Z. The Concept of Totemism and Ethnonym/ Central asian journal of literature, philosophy and culture. Volume: 03 Issue: 05 May 2022.
7. Kilichev B.E., Safarova M.Z. Toponyms Formed On The Basis Of Nation Names International Journals of Sciences and High Technologies. Vol. 25 No. 1 February 2021, pp. 104-107.
8. Kilichev B.E., Safarova O. Study of toponyms in the language of the work. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915. Vol.10/ Issue 1, Jan. (2022) 92–95.
9. Kilichev B.E., Bafoyeva N. A. Some characteristics of onomastic units in Abdullah Qodiriy's novel "Bygone days" Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. ISSN: 2249-7315 Vol. 12, Issue 01, January 2022.

10. Kilichev B.E A way of making words on proper nouns// International Journal on Integrated Education Volume 3, Issue II, Feb 2020. p. 96-98.
11. Kilichev B.E., Safarova M.Z. Bukhara region's typical toponyms transformed by means the names of nations. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Philadelphia, USA. 2021 02 94.
12. Топоров В. Н. Из области теоретической топонимстики // ВЯ. –М., 1962. № 6. –С. 3-12;
13. Караев С. К. Ойконимия Узбекистана. Диссертация на соискание ученой степени доктора географических наук в форме научного доклада. –Т., 1998. –С. 9-24;
14. Караев С. К. Топонимия Узбекистана. –Т.: Фан, 1991. –С. 7-46;
15. Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. –Т.: Фан, 1989. 5 –Б. 36-б.;
16. Охунов Н. Фарғона водийси этноойконимлари // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т.: Фан, 2000. 1-сон. –Б. 20-23.
17. Холмуратов И. Жанубий Қорақалпоғистон ойконимлари ва уларнинг луғавий асосларининг лисоний тадқиқи: Филол. фанл. фалс. доктори (PhD) диссер. –Б., 2019. –Б. 64.
18. Эназаров Т.Ўзбекистон топонимикаси номли махсус курсни ўқитиш методикаси. –Т., 1999. –Б.26.